

**2022-2026 yillarda Toshkent davlat yuridik universitetini
strategik rivojlantirish
DASTURI**

I. Kirish

Toshkent davlat yuridik universiteti (keyingi o‘rinlarda - universitet)ni 2022-2026 yillarda rivojlantirish dasturi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5987-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son Farmoni bilan tasdiqlangan Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-60-son hamda 2021-yil 24-dekabrda “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-61-son qarorlariga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, dastur universitetni akademik sifat jihatidan keyingi besh yillik rivojlantirish strategiyasini belgilab beruvchi hujjat hisoblanadi.

Dastur mahalliy rivojlanish va xalqaro standartlar asosida universitetning akademik, tashkiliy-boshqaruv va moliyaviy mustaqilligini ta’minlash, “Universitet - 4.0” (ta’lim – ilm-fan – tijoratlashtirish – ijtimoiy loyihalar tashabbuskori) konsepsiyasiga bosqichma-bosqich o‘tish, universitetni yuridik amaliyot va ilm-fan markaziga aylantirish, har bir talaba va xodimning akademik, ilmiy va kasbiy muvaffaqiyatini rag‘batlantirish orqali yuridik ta’lim va ilm-fanning shaffofligi va jozibadorligini oshirish hamda milliy huquqiy qadriyatlarni dunyo ilmiy hamjamiyatiga tanitishni nazarda tutadi.

II. Universitetning asosiy qadriyatlari

Universitet ish faoliyatini olib borishda akademik erkinlik va akademik halollikni ta’minlash, ta’lim va tadqiqot ishlarini teng sharoitlar, inklyuzivlik va xilma-xillik asosida tashkil etish, talaba va xodimlarning ijtimoiy mas’uliyatini oshirish hamda universitet bitiruvchilari bilan faol hamkorlik o‘rnatish kabi qadriyatlarga tayanadi.

Akademik erkinlik – professor-o‘qituvchi va talabalarning biror-bir bosim, asossiz yuklama va cheklovlarsiz ta’lim berish va olish hamda ilmiy-tadqiqot bilan shug‘ullanish erkinligini ifodalaydi. Bunda universitet professor-o‘qituvchilariga o‘z mutaxassisligi bo‘yicha fan dasturi (sillabus)ni mustaqil ishlab chiqish hamda o‘z ilmiy va pedagogik mahoratini tashqi aralashuvlarsiz erkin namoyon eta olish imkoni beriladi.

Akademik halollik – talaba (magistrant), doktorant (mustaqil izlanuvchi), professor-o‘qituvchi va xodimlarning universitetdagi o‘quv jarayoni va tadqiqot faoliyatida akademik etika va halollikka qat’iy rioya etishlarini ta’minlovchi qadriyatdir. Bunda ta’lim va ilmiy-tadqiqot faoliyatining barcha ishtirokchilari yolg‘on, plagiat (ko‘chirmachilik), soxtalashtirish, boshqa shaxslardan yordam olish va halollik qadriyatiga zid boshqa har qanday usul va vositalardan foydalanishi taqiqlanadi. Natijada universitetda akademik insofsizlik (plagiat)ga murosasiz munosabatda bo‘lish muhiti yaratiladi.

Teng sharoitlar, inklyuzivlik va xilma-xillik – universitetda ta’lim olish, ilmiy-tadqiqot va mehnat jarayonida barcha uchun teng shart-sharoitni ta’minlash, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun qulay shart-sharoit yaratish, turli madaniyatlar va individlarni qadrlashga qaratilgan muhitni shakllantiradi.

Universitet talabalari va xodimlarida ijtimoiy mas’uliyat hissini oshirish yo‘nalishidagi ishlarni “ijtimoiy faollik – universitet nufuzi – jamiyat foydasi” uch pog‘onali tashabbuskor tizim asosida yo‘lga qo‘yish, bu borada jamiyat uchun foydali ijtimoiy loyiha tashabbuskori bo‘lgan talaba va xodimlarni rag‘batlantirib borish mexanizmini yaratishga ham alohida e’tibor berilmoqda.

Shu bilan birga, universitet bitiruvchilari bilan muntazam muloqot o‘rnatib, ularni universitetning o‘quv, ilmiy-innovatsion va biznes loyihalariga, shu jumladan, talabalarning amaliy stajirovkasi va kasbga yo‘naltirish jarayonlariga faol jalb qilish choralarini ko‘rishi yuridik ta’limdagi keyingi besh yillikning muhim strategik qadami hisoblanadi.

III. Universitetni strategik rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari

3.1. Universitet boshqaruv tizimini zamonaviy standartlar bo‘yicha transformatsiya qilish

Universitet boshqaruv tizimini takomillashtirish va optimallashtirish dastlabki strategik maqsad hisoblanadi. Universitetda takroriy vakolat va funksiyalarga ega fakultet kengashlari hamda O‘quv-uslubiy va Ilmiy-uslubiy kengashlar mavjud bo‘lib, ularning vazifalari asosan tashkiliy masalalarni hal qilishga qaratilgan. Ta’lim sifati va ilmiy-tadqiqot sifati masalalarini kollegial tartibda ko‘rib chiqish mexanizmi, ya’ni universitet boshqaruvida akademik halollik va tadqiqot etikasining institutsional asoslari shakllantirilmagan. Shu nuqtai nazardan, oliy ta’limning zamonaviy menejment standartlarini hisobga olgan holda universitetda mavjud fakultet kengashlari hamda O‘quv-uslubiy va Ilmiy-uslubiy kengashlar negizida Akademik halollik kengashi va Tadqiqot etikasi kengashini tashkil etish nazarda tutilmoqda.

Shu bilan birga, universitet kengashi va rektori vakolatlarining o'zaro nisbatini aniqlashtirish, fakultet dekanatlari va talabalarga xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarkibiy bo'linmalarning funksional vazifalari chegarasini belgilagan holda ularning o'zaro hamkorligi va ish yurituvini, shu jumladan, butun ta'lim boshqaruvini to'liq raqamlashtirish lozim.

Shuningdek, universitetdagi akademik boshqaruvning hozirgi holati o'quv jarayonini va talabalarga xizmat ko'rsatishni muvofiqlashtirishning mobil tizimini "yagona darcha" tamoyili asosida tashkil etishni taqozo qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, universitetda Qabul jarayoni va talabalar registratsiyasi bo'limi hamda Karyera markazini tashkil qilib, o'quv jarayonini muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan barcha bo'linmalarni (O'quv jarayonini muvofiqlashtirish bo'limi, Masofaviy ta'lim bo'limi, Elektron universitet markazi, Shartnomaviy ta'lim xizmatlari bo'limini) Talabalarga xizmat ko'rsatish markaziga birlashtirgan holda Akademik faoliyat va registrator boshqarmasini bosqichma-bosqich tashkil etish universitetning strategik rejalaridan biri hisoblanadi.

3.2. Ta'lim sifatini oshirish va amaliyligini ta'minlash

Yuridik ta'limni samarali yo'lga qo'yish uchun, eng avvalo, kadr buyurtmachilarining ehtiyojlarini o'rgangan holda malaka talabalarini ishlab chiqishdan boshlab talabalarining amaliy stajirovka va kasbiy o'sishini to'g'ri tashkil etishgacha bo'lgan barcha jarayonlar bo'yicha ish beruvchilar bilan yagona muloqot maydonchasini yaratish juda muhim.

Yuridik ta'limga Yevropa kredit tizimi ECTS (European Credit Transfer and Accumilation System)ni to'liq joriy etish bilan birga universitetni yuridik amaliyot markaziga aylantirish zarur. Bunda birinchi usul – huquqni qo'llash bilan shug'ullanuvchi idora va tashkilotlarning amaliy markazlarini (sayyor sud majlisi xonalari, tergov va kriminalistika laboratoriyalari, yuridik xizmat, mediatsiya, hakamlik sudlari va xalqaro arbitraj markazlari, yuridik biznes akselleratorlari xonalarini) universitet kampusida tashkil qilish bo'lsa, ikkinchi usul – yuridik kadr buyurtmachilari tashkilotlarida amaliy mutaxassislik kafedralarini tashkil etgan holda o'sha joyning o'zida mashg'ulotlarni real kuzatuv ko'rinishida olib borish hisoblanadi.

Yuridik ta'lim sifatiga oid vazifalarni amalga oshirish borasida zamonaviy, sodda tilda yozilgan va jozibador o'quv adabiyotlarni nashr qilish, yuridik ta'limga zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o'qitishning ilg'or yondashuvlarini (Just-in-Time teaching, Concept mapping methodology) joriy etish, dars mashg'ulotlarini zamonaviy uslubdagi kompetensiyalar va egiluvchan ko'nikmalarni (Soft skills) shakllantirishga qaratilgan tartibda tashkil etish hamda professor-o'qituvchilarning kasbiy malakasini uzluksiz oshirish tizimini yaratishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu borada samarali tizim yaratish maqsadida universitetning tajribali professorlariga o'qituvchi-yordamchi (Teaching Assistant) va ilmiy-yordamchi (Research Assistant)larni birlashtirish institutini joriy qilish hamda xorijiy professorlarni kafedralarga akademik maslahatchi (Academic Advisor) sifatida to'liq shtatga jalb qilish ustuvor vazifalar sifatida belgilanmoqda.

Shuningdek, yuridik ta'lim olishda talabalar o'rtasida raqobatni ta'minlagan holda ularni klinik ta'limga faol jalb qilish bilan bir qatorda talabalarda loyihalar bilan ishlash amaliy ko'nikmasini shakllantirish maqsadida oraliq nazoratlarini va bitiruv malakaviy ishlarni loyihaviy yondashuv (Legal Project Management) asosida tayyorlashni tashkil etish ishlarini ham yo'lga qo'yish rejalashtirilmoqda.

3.3. Ilm-fanni sifat jihatidan isloh qilish, amaliy natijadorligi va tijoratlashuvini oshirish

Huquqshunoslik sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarini xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirish maqsadida TDYUda akademik yozuv uslublarini qo'llash qoidalarini (TSUL Manual of Writing Style) ishlab chiqish hamda talaba va tadqiqotchilar uchun Akademik yozuv (Academic writing) modullarini o'zbek, rus va ingliz tillarida mutaxassislar yordamida o'qitishni yo'lga qo'yish muhim hisoblanadi. Shuningdek, doktorant va mustaqil izlanuvchilar uchun ilmiy tadqiqot olib borish bo'yicha maxsus o'quv kursini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Bu borada tadqiqotchilar bilan ishlashni soddalashtirish maqsadida tadqiqotchilarning elektron portfoliosini shakllantirgan holda universitet va tadqiqotchilar o'rtasidagi barcha hujjatlar aylanmasining elektron axborot tizimi (E-Researcher) yaratilib, mazkur tizim orqali izlanuvchilar faoliyati samaradorligini onlayn shaklda uzluksiz monitoring qilib borish mexanizmi joriy etiladi.

Universitetda ilmiy maktablarning faoliyati qoniqarli darajada emas, ularning ilmiy hamjamiyatdagi o'rnini yaqqol ko'zga ko'rinmaydi. Shu nuqtai nazardan, natijadorlikni oshirish maqsadida ilmiy maktablarda jamiyatdagi eng dolzarb muammolar bo'yicha so'nggi yuridik adabiyotlar va ilmiy ishlarni talaba va tadqiqotchilar ishtirokida muntazam ravishda muhokama qilib borish (Study Group) hamda muhokamalar natijalarini (Book review, Article review ko'rinishida) universitet veb-saytida va jurnallarida e'lon qilib borish amaliyotini yo'lga qo'yish zarur.

Shu bilan birga, ilmiy tadqiqot ishlarining ma'lumotlar bazasini yaratish va tijoratlashtirishni yo'lga qo'yish maqsadida universitet ilmiy fondini Ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasi (Big Data)ga aylantirish orqali (WestLaw, HeinOnline, LexisNexis kabi platformalarga prototip sifatida) UzLaw Huquqiy tadqiqotlar milliy bazasini yaratish kelajakda ilmiy hamjamiyat uchun foydali hamda ilmiy tadqiqotlar va qonunchilik jarayonini uzviy bog'lashga imkon beruvchi loyiha hisoblanadi.

3.4. Universitet etikasini shakllantirish, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish

Universitetda ma'naviy-ma'rifiy ishlarini tashkil qilishda o'zini o'zi boshqarish mexanizmini keng joriy qilish, bunda Talabalar kengashi (Students Unions) faoliyatidan samarali foydalanish maqsadga muvofiq.

Bu yo'nalishdagi muhim masalalardan biri universitet etikasini shakllantirish, universitet xodimi yoki talabasi bo'lishning yuksak sharafligi, uning nufuzini oshirish barchaning burchi ekanligi yuzasidan xodim va talabalar o'rtasida turli uchrashuvlar, tushuntirish ishlari, tanlovlar va loyihalar o'tkazib borish, shuningdek, universitet brendini ommalashtirish hisoblanadi.

Shu bilan birga, talaba va xodimlar orasida internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini zamonaviy usullar yordamida keng targ'ib qilish ham muhim choralardan biri hisoblanib, bu borada axborot xavfsizligi, shaxsga doir ma'lumotlarni himoyalash, axborotlarni tahlil qilish (fact-checking) yuzasidan qisqa fakultativ o'quv kurslarini tashkil qilish va o'quv kursining videotasvirlarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirib borish zarur.

Eng muhimi, universitet yutuqlarini veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirib borish orqali universitet faoliyati to'g'risida keng jamoatchilik xabardorligini oshirish ko'zlangan strategik maqsadlardan biri hisoblanadi.

3.5. Xalqaro hamkorlik, qo'shma ta'lim va tadqiqot dasturlarini yangi bosqichga ko'tarish

Yetuk xorijiy universitetlar va ilmiy markazlar bilan o'zaro manfaatli va natijador hamkorlikning ustuvor yo'nalishlarini belgilash mazkur yo'nalishdagi dastlabki vazifa hisoblanib, bu borada mintaqaviy dasturlar (Erasmus+, Tempus), shuningdek, alohida xalqaro hamkorlik tashkilotlari (KOICA, JICA, DAAD, GIZ) bilan hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish va hamkorlikda grant loyihalarini amalga oshirish nazarda tutilmoqda.

Bu borada xorijiy professor-o'qituvchilarni universitet ta'lim jarayoniga jalb qilish maqsadida tegishli (The Fulbright U.S. Scholar Program, The Fulbright Specialist Program) dasturlar bo'yicha ishlarni to'g'ri tashkil etish, xorijlik professor-o'qituvchilarni qo'shma ta'lim dasturlari va xorijlik talabalar uchun ta'lim dasturlarida ta'lim berishlarini ta'minlash muhim hisoblanadi.

Shuningdek, chet eldagi vatandoshlar bilan hamkorlikda masofaviy o'quv kurslari va yuridik ta'limni rivojlantirish bo'yicha individual loyihalar ishlab chiqish hamda xorijiy fuqarolarni o'qishga jalb qilishning alohida tizimini yaratish mazkur yo'nalishdagi ishlar natijadorligini belgilaydi.

3.6. Universitetning xalqaro reytinglarda munosib o'rin egallashini ta'minlash

Universitetni xalqaro reyting tashkilotlarining mintaqaviy va global reytingiga kiritishda hisobga olinadigan yo'nalishlar bo'yicha ishlashning yangi tizimini yaratish, shu jumladan QS (EECA, World, ESG Metrics, Graduate Employability) THE World University Ranking, THE Impact Ranking,

Greenmetric, U–Multirank, WURI, RUR xalqaro reyting tashkilotlari bilan global reytingga kirish yuzasidan chora-tadbirlarni muntazam amalga oshirib borish mazkur yo‘nalishdagi muhim vazifa hisoblanadi.

2021-yilda TDYU dunyoning nufuzli reytinglari THE Impact Rankingda 485-o‘rin, Greenmetric xalqaro reytingida esa 491-o‘rinni egallab, TOP-500 talikdan joy oldi. Bundan tashqari, universitet THE World University Ranking 2023 da faol ishtirok etib, reportyor, ya’ni reytingga kirishga da’vogar universitetlar qatoridan joy oldi va Ganza Universitetlar birlashmasiga a’zolikka qabul qilinib, O‘zbekistonda birinchi marta xalqaro reytingda hakamlik qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Universitetni hozirgi va kelajakdagi rivojlanish salohiyatidan kelib chiqib, World’s Universities with Real Impact (WURI), U–Multirank, Round University Ranking, Youth Incorporated, QS EECA (Rivojlangan Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari reytingi) QS ESG Metrics xalqaro reytinglarini TOP-1000 talikka kirishini rejalashtirilgan.

Bunda xalqaro tashkilotlar hamda TOP-1000 talik reytingidagi universitetlar, xalqaro va mahalliy ish beruvchilar bilan ishlashni yangi bosqichga olib chiqish bu borada amalga oshiriladigan ishlarning samaradorligini oshiradi va muvofiqlashtirishga yordam beradi.

3.7. Universitetning moliyaviy barqarorligini ta’minlash va marketing o‘rganishlarini tashkil etish

Universitetga moliyaviy mustaqillik berilganligini hisobga olib, eng avvalo, yuridik ta’lim va yuridik xizmat bozori bo‘yicha marketing o‘rganishlarni o‘tkazgan holda universitetda yaratilgan intellektual faoliyat natijalarini tijoratlashtirishning institutsional mexanizmlarini joriy etish zarur. Shu asnoda, o‘quv modullari va mashg‘ulotlarini tijoratlashtirishga qaratilgan xizmatlarni yo‘lga qo‘yish, jumladan, huquqshunoslikka qiziquvchi omma uchun O‘zbekiston milliy huquq tizimi haqida boshlang‘ich ma’lumot beruvchi “Tsul-0” onlayn kurs platformasini yaratish va tijoratlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, bozor ehtiyojidan kelib chiqib biznes vakillarining bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan “Biznes huquqi” maktabini (trening markazini) tashkil qilish orqali foydali loyihani yo‘lga qo‘yish mumkin.

Bugungi kunda tahririy-nashriyot (proofreading) va tarjima xizmatlarini amalga oshirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini rasmiylashtirish talablari bo‘yicha va antiplagiat dasturi orqali tekshirish xizmatlarini yo‘lga qo‘yish xizmatlar bozorida o‘sib boruvchi talablardan biri hisoblanadi.

3.8. Universitet faoliyatini raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash

Universitet faoliyatini raqamlashtirish orqali, eng avvalo, universitet infratuzilmasini rivojlantirish, shu jumladan, kampusda talabalarga bank-moliya

xizmatlari, transport chiptalarini xarid qilish yoki bron qilish, ichki turizmni tashkil etish xizmatlarini yo'lga qo'yish, talaba ID kartasini (student card) ko'p tarmoqli karta tizimiga integratsiya qilish orqali oson pul o'tkazish, universitet kutubxonasi, oshxonasi, avtoturargoh, imtiyozli transport kartalari (ATTO)dan foydalanish, universitetning burchak do'konlarida (corner shop) to'lovlarni amalga oshirish imkonini yaratish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, Axborot-resurs markazining elektron universitet platformasiga integratsiyalasha oladigan avtomatlashtirilgan axborot kutubxona dasturini yaratish, bunda ARM qidiruv tizimini takomillashtirish, ya'ni kengaytirilgan qidiruv tizimini yo'lga qo'yish universitetdagi o'quv va ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

IV. Dasturni amalga oshirish mexanizmi

2022-2026 yillarda Toshkent davlat yuridik universitetini strategik rivojlantirish dasturida nazarda tutilgan konseptual g'oyalarni amalga oshirish mexanizmlari yo'l xaritada belgilanmoqda.